



TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BILINGVISTIK KOMPETENSIYANING O‘RNI

Safarova Maftuna

Samarqand davlat Chet tillar instituti

Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasida

Email: mftnsfrv@gmail.com;

Phone: 998 88 044 42 48

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, bilingvistik kompetensiyaning o‘rni hamda uni shakllantirishdagi psixologik va pedagogik omillar tahlil qilinadi. Maqola talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda chet tillar o‘qitish jarayonining samarali usullarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, bilingvistik kompetensiya, talaba, ijodkorlik, tafakkur, til o‘rganish.

KIRISH QISM.

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish pedagogik tizimning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chet tillarini o‘rganish jarayonida talabalarda bilingvistik kompetensiyaning shakllanishi nafaqat kommunikativ malakalarni, balki kreativ fikrlashni ham rivojlantiradi. Til o‘rganish jarayonida ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi metodlar va strategiyalar talabaning tafakkur doirasini kengaytiradi, turli tillarda o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu boisdan, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda bilingvistik kompetensiyaning o‘rni beqiyos ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlash tushunchasi va uning psixologik asoslari. Kreativ fikrlash – bu insonning yangicha, noodatiy yechimlarni topish qobiliyati bo‘lib, u tafakkur, xayol va motivatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirish ularni mustaqil qaror qabul qilishga, muammoli vaziyatlarda noodatiy yondashuv ko‘rsatishga o‘rgatadi. Psixologiyada kreativlik shaxsning tafakkur erkinligi, moslashuvchanligi va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyati bilan izohlanadi. E.P.Torrance fikricha, kreativ fikrlash inson takakkurining yuqori darajasi bo‘lib, u shaxsning mavjud bilimlarini yangi shaklda qo‘llash imkoniyatini beradi. J.Guilford (1950) – ijodkorlikni tafakkurning “divergent” shakli deb atagan. Guilford nazariyasiga ko‘ra, kreativ fikrlash muammoni turli nuqtai nazardan ko‘ra bilish, noodatiy yechimlarni ilgari surish bilan ifodalaydi.

Bilingvistik kompetensiya — bu shaxsning ikki yoki undan ortiq tillarda samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. U tilning leksik, grammatik, fonetik, madaniy va pragmatik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Bilingvizm talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, til strukturasi orqali dunyoni idrok etish imkoniyatlarini boyitadi. Psixologik nuqtai nazardan, ikki tillilik tafakkurning moslashuvchanligi va ijodkorlik darajasini oshiradi. Kreativ fikrlashni bilingvistik kompetensiya orqali rivojlantirish yo‘llari. Bilingvistik kompetensiya shaxsning nafaqat til qoidalarini, balki nutq madaniyati va muloqot kontekstini to‘g‘ri anglash ko‘nikmasidir (Hymes, 1972). Bundan tashqari Vygotskiy (1934) – tafakkur va nutq bir-birimbilam chambarchas bog‘liq ekanini, til esa tafakkurni shakllantiruvchi vosia ekanini isbotlagan. Vygotskiy ta’kidlaganidek, nutq va tafakkur o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Shu bois, chet tili o‘rganish jarayoni talabalarda yangi tafakkur shakllarni hosil qiladi. Chet tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan — rol o‘yinlari, debatlar, ijodiy yozuv mashqlari, muammoli vaziyatlar tahlili kabi usullardan foydalanish samaralidir. Masalan, talabalar ikki tilda muayyan mavzuda bahs yuritish orqali mantiqiy, tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar. Shuningdek, til o‘rganishda metafora, assotsiatsiya va analogiyalar asosida topshiriqlar berish talabalarning ijodiy



qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bilingvistik muhitda o‘qish esa tafakkur faoliyatini yanada faollashtiradi. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari yani psixologik-pedagogik adabiyotlarda quyidagi metodlar samarali deb topilgan.

1. "Brain storming" (fikrlar yomg'iri) – talabalar berilgan mavzuda erkin fikr bildiradilar, hech qanday tanqidga yo'l qo'yilmaydi.

2. "Mind-mapping" (aqliy xarita) - mavzuga oid tushunchalar o'zaro bog'lanadi, yangi g'oyalar topiladi.

3. Rol o'yinlari va muammoli vaziyatlar – talabalar hayotiy yoki kasbiy muammoga yechim topishga harakat qiladilar.

4. Innovatsion topshiriqlar- biror matnni boshqa tilda ijodiy qayta yozish, dialoglarni o'zgacha talqinda tuzish va hokazo.

5. Projekt usuli- talabalar chet tilida mini-loyihalar tayyorlaydilar (masalan, "Til va madaniyat o'rtasidagi o'xshashliklar" mavzusida). Bu usullar bir vaqtning o'zida ham bilingvistik, ham kreativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Amaliy tavsiyalar

– Chet tili darslarida talabalarga ijodiy topshiriqlar berish (hikoya to'ldirish, so'z o'yinlari, metaforik ifodalar);

– Ikkita tilda muammoli savollarga javob topish orqali tafakkur faolligini oshirish;

– Bilingvistik muhit yaratish (turli tillarda muloqot, audio va video materiallardan foydalanish);

– O'qituvchilar uchun kreativ yondashuv metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish chet tillar ta'limining eng muhim maqsadlaridan biridir. Bilingvistik kompetensiya bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, chunki u nafaqat til bilimini, balki ijodiy tafakkurni, tahliliy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu bois o'qituvchilar ta'lim jarayonida ijodkorlikka yo'naltirilgan metodlarni keng qo'llashlari zarur. Bu esa nafaqat til o'rganish samaradorligini, balki talabalarning intellektual salohiyatini ham yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G.B., Qodirova B.R. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari.
3. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, 1986.
4. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
5. Stern H.H. Fundamental Concepts of Language Teaching. – Oxford University Press, 1992.
6. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING IFODA MA'NOSIGA KO'RA TURLARI. Международный журнал искусство слова, 4(2).
7. Furkatovna, B. I. (2021). DISCURSIVE-PRAGMATIC FEATURES OF KOREAN AND UZBEK ARTICLES ON THE CONCEPT OF "MAN" 사람. International Journal of Management, 12(2).
8. Баёнханова, И. Ф. (2022). ХИКМАТ АРБОБЛАРИНИНГ ТУРЛИ ТИЛДАГИ МУЛОҚОТ ОДОБИНИ ИФОДАЛОВЧИ МАҚОЛЛАР ҲАҚИДАГИ ФИКРЛАРИ (ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 555-565.
9. Bayanxanova, I. F. (2023). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK, KOREAN AND ENGLISH. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 18-21.
10. Bayanxanova, I. F., & Soliyeva, A. (2022). O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA KELISHIK KATEGORIYASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 114-121.